

## **“Kelajak soati” darsining 5-8-sinflar uchun mashg‘ulot ssenariysi**

### **27-mavzu: “Yil boshi – Navro‘z”**

#### **Dars maqsadi**

##### **Umumiy maqsad:**

O‘quvchilarga Navro‘z bayramining tarixiy ildizlari, ma‘naviy-axloqiy ahamiyati, qadriyat sifatidagi o‘rni haqida tushuncha berish; milliy an‘analarni asrab-avaylashga ongli munosabatni shakllantirish.

##### **Aniq maqsadlar:**

- Navro‘zning kelib chiqishi, yil taqvimi bilan bog‘liqligi, “Yil boshi” tushunchasini o‘quvchilarga tushuntirish.
- Navro‘z udumlari (sumalak, sayilgohlar, xalq o‘yinlari, bag‘rikenglik ruhiyati) haqida bilim berish.
- Milliy qadriyatlar zamonaviy jamiyatda qanday ahamiyat kasb etishini muhokama qilish.
- Jamoada ishlash, fikr bildirish, muhokama yuritish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

##### **Kutiladigan natijalar**

##### **Aqliy va tushunchaviy darajada:**

- Navro‘zning tarixi, ma‘naviy asoslari, an‘analari haqida mantiqiy tushunchaga ega bo‘ladi.
- “Yil boshi – Navro‘z”, “milliy urf-odat”, “an‘ana va qadriyat” kabi tushunchalarni sharhlay oladi.

##### **Hissiy va qadriy yondashuvda:**

- Milliy qadriyatlarga hurmat, jamoada birdamlik, tabiatga mehr kabi fazilatlar shakllanadi.
- Bayramning inson ruhiyatida uyg‘otadigan iliqligi, ijobiy hislari haqida fikr bildiradi.

##### **Amaliy ko‘nikmalarda:**

- Guruhda ishlash, mavzuga oid taqdimot yoki ko‘rgazmali plakat yasash, qisqa sahna ko‘rinishlari yaratish.
- Navro‘z udumlarining zamonaviy talqinlarini taklif qilish.

##### **Ijtimoiy-pedagogik jihatdan:**

- O‘quvchilarda bag‘rikenglik, madaniy merosga sodiqlik, hamkorlikda ishlash madaniyati rivojlanadi.
- Yaxshi niyat, mehr-muruvvat kabi tushunchalarning ijtimoiy ahamiyatini anglaydi.

##### **Metapredmet yondashuv**

- **Tarix** – Navro‘zning kelib chiqishi, qadimgi Sharq kalendarlari.

- **Biologiya** – Bahor fasli, tabiatning uygʻonish jarayoni.
- **Tarbiya va Maʼnaviyat** – qadriyatlar, mehr-oqibat, ezgulik tushunchalari.
- **Sanʼat** – Navroʻz oʻyinlari, raqslar, milliy liboslar, rangtasvir.

**Dars hamkori:** Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti. [www.milliytarbiya.uz](http://www.milliytarbiya.uz)

**Dars davomiyligi:** 45 daqiqa.

**Tavsiya etilgan mashgʻulot shakli:** bilim beruvchi suhbat, video parchalar, nazariy tushunchalar va hissiyotlarni ifodalashdan foydalanishni nazarda tutadi.

**Materiallar toʻplami:**

- videomateriallar;
- tarixiy hikoyalar;
- taqdimot.

## I. KIRISH – MOTIVATSION QISM (10 daqiqa)

*Doskaga oldindan ikki so‘z yozib qo‘yilgan bo‘ladi:*

**1-YANVAR**

**21-MART**

**O‘qituvchi:** Aziz o‘quvchilar, “Yangi yil” deganda birinchi bo‘lib qaysi sana esingizga keladi?

**O‘quvchilar:** 1-yanvar!

**O‘qituvchi:** To‘g‘ri. Endi yana bir savol: unda nega xalqimiz Navro‘zni ham ko‘pincha yil boshi deb ataydi?

**O‘quvchilar:**

- Chunki bahorda yangi fasl boshlanadi.
- Chunki tabiat yangilanadi.
- Chunki bu qadimiy an‘ana.

**O‘qituvchi:** Juda yaxshi. Demak, bugungi darsimizning mavzusi yaqinlashib kelayotgan bayramimiz va milliy qadriyatimiz – Navro‘zga bag‘ishlanadi.

*Doskaga katta qilib yoziladi:*

**YIL BOSHI – NAVRO‘Z**

**O‘qituvchi:** 1-yanvar kalendar yilining boshlanishi bo‘lsa, Navro‘z tabiat uyg‘onishi, hayot yangilanishi, yerga jon kirishi bilan bog‘liq tabiiy yangi yildir. U tabiat bilan yaqin, unga quloq solib yashagan ota-bobolarimizning donishmandligini va tabiiy fanlardan bilimlari juda chuqur bo‘lganini anglatuvchi bayramdir.

Tasavvur qiling: qish tugadi, yerdagi muzlar eridi, daraxtlar kurtak chiqaradi, dalalarda ish boshlanadi. Odamlar uylarini va hovlilarini tozalaydi, ko‘chat ekadi, arazlar unutiladi, qozonlarda sumalak qaynaydi. Bu shunchaki bayrammi? Yo‘q. Bu jamiyatga va jamoalarga tom ma‘noda yangi davrning kelishidir.

Demak, bugun biz Navro‘zni faqat “bayram” sifatida emas, balki yil boshi, madaniy xotira, milliy qadriyat, tabiat va inson uyg‘unligi ramzi sifatida o‘rganamiz.

*O‘qituvchi bir oz pauza qiladi.*

**O‘qituvchi:** Sho‘ro davrida Navro‘z eskilik sarqiti deb taqiqlab qo‘yilgan edi. Mustaqillik yillarida Navro‘z bayrami mamlakatimizda keng nishonlana boshlandi, u milliy qadriyat sifatida xalqimizga qaytarib berildi. Bugungi kunda esa davlatimiz tomonidan bu bayramni milliy qadriyat sifatida asrash, rivojlantirish va yosh avlodga yetkazish masalasiga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Prezidentimiz tashabbusi bilan 2026-yil ham Navro‘zni katta umumxalq bayrami sifatida nishonlash haqida maxsus Qaror imzolandi.

Hozir biz shu haqida kichik videoni tomosha qilamiz.

**Vizual kontent**

**“Navro‘zni ulug‘lash – insonni ulug‘lashdir!”**

[https://t.me/kelajaksoati\\_rasmiy/466](https://t.me/kelajaksoati_rasmiy/466)

**O‘qituvchi:** Navro‘z bugungi kunda nafaqat milliy bayram, balki xalqni birlashtiruvchi katta madaniy hodisa hamdir. Navro‘zning ahamiyati faqat bir mamlakat yoki bir xalq bilan chegaralanib qolmaydi. Bu bayram xalqaro miqyosda ham e’tirof etilgan.

2009-yilda Navro‘z bayrami **UNESCO Insoniyat nomoddiy madaniy merosi ro‘yxatiga** kiritildi. Bu esa Navro‘z butun insoniyat uchun muhim tarixiy-madaniy meros ekanini anglatadi. Bu jarayonda O‘zbekiston ham faol ishtirok etgan va Navro‘zning tarixiy hamda madaniy ahamiyatini xalqaro maydonda tan oldirish yo‘lida katta sa’y-harakatlar qilgan.

Bundan tashqari, 2010-yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti ham **21-martni “Xalqaro Navro‘z kuni”** deb e’lon qildi.

O‘ylab ko‘ringlar: nega ming yillar davomida yashab kelayotgan bu bayram bugun ham butun dunyo uchun qadrlı bo‘lib qolmoqda?

*2-3 o‘quvchi fikr bildiradi.*

**O‘qituvchi:** Chunki Navro‘z insoniyat uchun eng muhim qadriyatlarni – tabiatga hurmatni, yangilanishni, tinchlik, birlik va yaxshi niyatni ifodalaydi.

Demak, bugun biz Navro‘zni faqat bayram sifatida emas, balki yil boshi, madaniy xotira, milliy qadriyat hamda tabiat va inson uyg‘unligi ramzi sifatida o‘rganamiz.

Dars davomida Navro‘zning ma’nosi, uning qadimiy an’analari, muchal yil hisobi, sumalak va bahor taomlari, xalq o‘yinlari hamda dunyo xaritasidagi geografiyasi bilan ham tanishamiz.

## **II. ASOSIY QISM (25 daqiqa)**

*O‘qituvchi doskadagi “Yil boshi – Navro‘z” yozuviga ishora qiladi.*

**O‘qituvchi:** Navro‘z so‘zi “yangi kun” degan ma’noni anglatadi. Lekin bu ibora faqat bir kun nomi emas. U odamlarning tabiat, vaqt va hayot haqidagi umumiy tasavvurini ifodalaydi. Chunki qadim zamonlarda insonlar bugungidek elektron kalendar yoki telefonlarga qaramagan. Ular yil almashishini tabiatga qarab bilgan: qachon yer yumshaydi, qachon quyosh qattiqroq qizdiradi, qachon kun uzaya boshlaydi, qachon dalaga urug‘ sepish mumkin – mana shu belgilar yangi davr boshlanganini bildirgan.

Shuning uchun Navro‘zning aynan 21-mart kuni nishonlanishi bejiz emas. Bu kunda kun va tun tenglashadi. Ya’ni tabiat go‘yo muvozanatga keladi. Shundan keyin kunduz uzayib boradi, yerga iliqlik ko‘proq tushadi, tabiat uyqudan uyg‘onadi. Shu ma’noda Navro‘z tabiatning yangi yilidir

Endi bir narsani tasavvur qiling: siz bugungi zamonda emas, balki yuzlab yillar oldin yashayapsiz. Telefon yo‘q, internet yo‘q, radio-televizor ham yo‘q. Sovuq qishning so‘nggi kunlari, uyda o‘tirib rosa zerikkansiz, oziq-ovqat ham

kamaygan, dala ishlari to'xtagan, havo sovuq. Birdan kun iliqlasha boshlaydi, yer yumshaydi, maysalar chiqadi, suvlar oqa boshlaydi. Siz xursand bo'lasizmi?

**O'quvchilar:** Ha!

**O'qituvchi:** Ana shu sabab qadimda odamlar Navro'zga yetib kelganidan chin dildan quvongan. Chunki bu shunchaki bayram emas, tiriklik davom etayotgani, tabiatning qayta jonlangani, yangi umidlar boshlanganining belgisi bo'lgan. Shu bois ular bir-biriga yaxshi tilaklar bildirgan, arazlarni unutgan, hovlilarini tozalagan, ko'chat ekan, yangi niyatlar qilgan.

Demak, Navro'zning tagida juda katta falsafa yotadi: qishdan keyin bahor keladi, qiyinchilikdan keyin yengillik keladi, qorong'ilikdan keyin yorug'lik keladi.

Shuning uchun ham bu bayram asrlar davomida odamlarning qalbida yashab kelmoqda.



**O'qituvchi:** Vaqtni tushunish uchun odamlar nafaqat kun va fasllarni, balki yillarni ham o'zlaricha hisoblashgan. Ana shu yerda biz Navro'z bilan bog'liq yana bir qiziqarli tushunchaga duch kelamiz. Bu – muchal.

Muchal – bu Sharq xalqlaridagi qadimiy 12 yillik yil hisobi tizimi. Har bir yil ma'lum bir hayvon nomi bilan atalgan. **Sichqon, sigir, yo'lbars, quyov, baliq, ilon,**

**ot, qo'y, maymun, tovuq, it, to'ng'iz** – bu ketma-ketlik shunchaki hayvonlar ro'yxati emas, balki vaqtni eslab qolishning xalqona usuli bo'lgan.

Qadimda odamlar “falon voqea ot yilida bo'lgan”, “mening tug'ilganim quyon yiliga to'g'ri keladi” kabi iboralarni ishlatganlar. Demak, Navro'z yangi yil sifatida kirib kelar ekan, u bilan birga muchal yilining yangi davri ham bog'langan.

### **Interaktiv o'yin: “Muchal zanjiri”**

*O'qituvchi muchal hayvonlari tasviri tushirilgan 12 ta kartochkani aralashtirib stolga qo'yadi. Bunda yuqorida keltirilgan “Muchal yillari” suratidan foydalanish mumkin.*

**O'qituvchi:** Hozir kichik sinov qilamiz. Qani, kim vaqt zanjirini to'g'ri tiklay olar ekan?

*Sinfdan 12 nafar o'quvchi navbat bilan doska yoniga chiqadi. Har biriga bittadan hayvon kartochkasi beriladi. Ular sinf oldida turib, doskadagi “Muchal yillari” suratiga qarab muchal ketma-ketligini to'g'ri joylashtirishga harakat qiladi. Qolgan sinfularga yordam beradi.*

**O'qituvchi:** Juda yaxshi. Endi ko'rdingizmi, qadimda vaqtni eslab qolish uchun qanchalik qiziq va qulay usul bo'lgan. Demak, Navro'z nafaqat bayram, balki xalqning vaqt haqidagi xotirasi bilan ham bog'liq.

Hozir sizlarga muchallar qanday paydo bo'lgani haqida bir qiziqarli video qo'yib beraman,

### **Vizual kontent**

#### **Muchallar tarixi**

[https://youtu.be/X6Bk\\_7DQz-8](https://youtu.be/X6Bk_7DQz-8)

**O'qituvchi:** Navro'z deganda ko'z oldimizga darrov bir taom keladi – sumalak. Buning sababi oddiy: sumalak Navro'zning eng mashhur timsollaridan biri. Lekin sumalakni shunchaki shirin taom deb tushunish kerak emas.

Sumalak bug'doy maysasidan tayyorlanadi. Bug'doyning o'zi qadimdan rizq, hayot va baraka ramzi sifatida ko'rilgan. Bahorda bug'doydan unib chiqqan maysa tabiat uyg'onganining tirik belgisi hisoblangan. Shu bois sumalak aslida bahorning ta'mi, barakaning ifodasi, sabr va birlikning mevasi hisoblanadi.

Eng muhimi, sumalak yolg'iz bir odam tomonidan pishirilmaydi. Odatda qozon atrofida ko'pchilik yig'iladi. Kimdir kovlaydi, kimdir qo'shiq aytadi, kimdir tilak bildiradi. Shu sabab sumalak faqat taom emas, odamlarni birlashtiruvchi omildir.

Nega aynan bahorda sumalak qilinadi? Chunki bahor – unish, ko'karish, o'sish fasli. Demak, sumalak ham tabiat uyg'onishi bilan bevosita bog'liq.

Albatta, Navro‘z dasturxoni faqat sumalakdan iborat emas. Yana ko‘k somsa, halim, ko‘k chuchvara, turli ko‘katli taomlar ham tayyorlanadi. E’tibor bering, bu taomlarning o‘zida ham bahor nafasi bor. Ko‘katlar, yangi hosil, tabiat bergan ne’matlarning ilk ko‘rinishlari Navro‘z dasturxoniga ko‘chadi. Demak, bayram va tabiat yana bir bor bir-biriga ulanadi.

Bayram faqat dasturxon atrofida o‘tmaydi. Navro‘z sayillari xalqni bir joyga to‘playdi. Unda kurash, arqon tortish, ot o‘yinlari, varrak uchirish, sayilgohlar, xalq tomoshalari bo‘ladi.

Chunki o‘yinlar xalqning kayfiyatini ko‘taradi, jamoani birlashtiradi, kuch, epchillik, chaqqonlikni namoyon qiladi. Bayram odamlarni uyidan chiqarib, bir maydonga to‘plash, bir ruhda birlashtirish vazifasini ham bajargan.

Masalan, varrak uchirishni olaylik. Nega aynan bahordan boshlab varrak uchiriladi? Chunki bu faslda shamollar jonlanadi, osmon ochiqlashadi, tabiat harakatga keladi. Varrak ham xuddi bahorning o‘zi kabi osmonga ko‘tariladi. Bu – bolalar uchun quvonch, kattalar uchun esa sayilning bir qismi.

Bolalar, orangizda varrak yasashni biladiganlar bormi? Qo‘llaringizni ko‘taring-chi! Barakalla. Bu juda qiziq jarayon, to‘g‘rimi? Hozir sizlarga mashhur tilshunos olim va jamoatchilik faoli Eldor Asanov varrak yasashni o‘rgatadi. Qani, ekranga qaraymiz.

### **Vizual kontent**

#### **Eldor Asanov farzandlari bilan varrak yasadi**

<https://youtu.be/llpOB0C8kNQ>

**O‘qituvchi:** Yurtimizda bahor birinchi bo‘lib keladigan eng Janubiy viloyatimiz – bu Surxondaryo. U yerda har yili bahorda turli etnofestivallar, xalq sayillari bo‘ladi. Ya’ni surxondaryoliklar Navro‘zni nishonlashni boshlab berishadi desak ham bo‘ladi. Turli xalq o‘yinlari, baxshilarning termalari, polvonlarning kurashlari, ko‘pkari – bularning bari Navro‘z bayramini yorqin, shukuhli va esda qolarli qiladi.

Hozir shunday sayillar bo‘ladigan maskan – Termizdagi etno-shaharchaga Sirojiddin bilan birga sayohat qilamiz. Ekranga qaraymiz.

### **Vizual kontent**

#### **Termizdagi “etno shaharcha” bo‘ylab sayohat qildik**

<https://youtu.be/Cp7SyTyUAto>

**O‘qituvchi:** Navro‘zda xalq tomoshalari ham boshlanadi. Dor o‘yinlari, qo‘g‘irchoq teatri (chodirxayol), milliy etnografik raqslar va qo‘shiqlar – bularning

bari asrlar davomida xalqimiz ichidagi iste'dodlarni kashf qilib kelgan. Odamlar ularni qadrlagan, o'z mablag'lari hisobidan pul to'lab ijodni qo'llab-quvvatlagan. Bu xalqimizga xos ezgu an'analardan biridir.

Hozir sizlarga dorboz qahramonimiz hikoyasini qo'yib beraman, u o'z kasbi haqida qiziq narsalarni aytib beradi. Marhamat, tomosha qilamiz.

### Vizual kontent

#### “4 yoshimdan beri dor ustidaman” – dorboz yigit hikoyasi

<https://youtu.be/-jX1NOloZ4w>

**O'qituvchi:** Navro'zning yana bir juda qiziq tomoni bor. Ko'pchilik uni faqat bizning milliy bayramimiz deb o'ylaydi. Aslida Navro'z – bir xalqning emas, juda katta hudud va ko'plab xalqlarning tarixiy bayramidir.

*Doskaga “Navro'z xaritasi” chiqariladi.*



*“Navro'z xaritasi”*

**O'qituvchi:** Xaritaga diqqat bilan qarang. Navro'z, eng avvalo, O'rta Osiyo xalqlari orasida keng nishonlanadi: O'zbekiston, Tojikiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston hududlarida bu bayram juda qadimdan yashab kelgan. Bundan tashqari, Eron, Afg'oniston, Ozarbayjon, ayrim Kavkaz hududlari, Turkiyaning ba'zi mintaqalari, Hindiston va Pokistonning ayrim jamoalari hamda boshqa sharqona madaniyat ta'siridagi hududlarda ham Navro'z nishonlanadi.

Demak, Navro'z bir hududdan ikkinchi hududga o'tgan sayin shaklan biroz o'zgarishi mumkin, ammo uning mohiyati deyarli bir xil qoladi: bahor, yangilanish, yaxshi niyat, birlik, dasturxon, tabiatga hurmat.

Qayerdadir u “Navro‘z”, qayerdadir “Nowruz”, qayerdadir “Nauryz” shaklida aytiladi. Talaffuz o‘zgaradi, lekin mazmun o‘zgarmaydi. Bu nimani ko‘rsatadi? Bu bayramning ildizi juda chuqur ekanini, u xalqlarni ajratmasdan, aksincha, ma’naviy jihatdan bog‘lab turishini ko‘rsatadi.

Endi o‘ylab ko‘ringlar: nima uchun turli xalqlar bir bayramni asrlar davomida saqlab qolgan?

*2-3 o‘quvchi javob beradi.*

**O‘qituvchi:** Chunki odamlar yashash tarzida, tabiatga munosabatida, yaxshi niyat qilish odatida o‘xshash bo‘lgan. Navro‘z aynan shu umumiy qadriyatlarni birlashtirib turgan.

Shuning uchun Navro‘z bugun ham dolzarb. Chunki bugungi odam ham yangilanishni, mehrni, birdamlikni, yaxshilikni istaydi. Demak, Navro‘z o‘tmishdagi bayram bo‘lib qolmagan, u bugungi kunimizning ham ajralmas qismidir.

Navro‘zga bir tomondan qarasak, bayram. Chuqurroq qarasak, tarix. Yana chuqurroq qarasak, u xalqning o‘zligini eslash usulidir.

### **III. YAKUNIY QISM (10 daqiqa)**

**O‘qituvchi:** Aziz o‘quvchilar, bugun biz Navro‘zga odatdagidek faqat bayram sifatida emas, balki yil boshi, qadriyat, xotira, tabiat va inson uyg‘unligi sifatida qarashga harakat qildik.

Navro‘z bizga bir juda muhim fikrni eslatadi: yangilanish faqat tabiatda emas, insonning o‘zida ham bo‘lishi kerak.

*Shundan so‘ng, o‘qituvchi kichik chellenj e‘lon qiladi:*

#### **“Mening Navro‘zim – mening yangilanishim” chellenji**

**O‘qituvchi:** Aziz o‘quvchilar. Kelasi mashg‘ulotgacha har biringiz quyidagi uch vazifadan kamida bittasini bajarib kelasiz:

**1. Ijodiy topshiriq:** “Navro‘z xaritasi” asosida bir kichik taqdimot yoki plakat tayyorlang. Unda Navro‘z qaysi xalqlarda nishonlanishi, qanday nomlar bilan atalishi yoki qanday udumlari borligini ko‘rsating.

**2. Oilaviy topshiriq:** Uyda ota-ona, bobo yoki buvidan “Bizning oilada Navro‘z qanday kutib olingan?” degan mavzuda suhbat o‘tkazing va 5-6 gaplik kichik hikoya tayyorlab keling.

**3. Shaxsiy topshiriq:** “Navro‘zdan boshlab men o‘zimda nimani yangilayman?” degan mavzuda qisqa esse yozib keling. Masalan: ko‘proq kitob o‘qiyman, tartibli bo‘laman, kimgadir yordam beraman, tabiatga ehtiyotkor bo‘laman.

Keyingi darsda eng qiziqarli ishlardan sinfimizda kichik Navro‘z burchagi tashkil qilamiz.

*O'qituvchi darsni ko'tarinki ruhda tugatadi:*

**O'qituvchi:** Navro'zning eng katta sabog'i shuki: inson har yili emas, har bahorda emas, xohlasa, har kuni o'zini yangilashi mumkin.

Yaxshi niyat qilgan odamning kuni ham yangi, yo'li ham yangi bo'ladi.

Barchangizga yaqinlashib kelayotgan Navro'z bayrami muborak bo'lsin, aziz o'quvchilar!

Shu bilan darsimiz tugadi. Xayr, salomat bo'linglar.